

67-DARS. AMALIY MASHG'ULOT

Misol. GUI dan foydalanib, 1 dan n gacha bo'lgan 10 ta tasodifiy sonni chiqaruvchi dastur tuzing. n foydalanuvchi tomonidan kiritiladi.

<pre>from tkinter import * from random import randint def tasodifiy(): number = int(textbox_input.get()) textbox_output.delete(0.0, END) for i in range (1,11): t_son = str (randint(1, number)) + '\n') textbox_output.insert(END, t_son) window = Tk() window.title('Tasodifiy son') window.geometry('250x250') window.configure (background='yellow') input_label = Label (window, text='Son: ', bg='yellow') input_label.grid (row=0, column=0) output_label = Label(window, text = '\nNatija', bg='yellow') output_label.grid(row=2, column=0) textbox_input = Entry (window, width=5) textbox_input.grid (row=1, column=0) textbox_output = Text(window, height=10, width=6)</pre>	Kutubxonadan Tkinter modulini yuklab oladi.
	Kutubxonadan <i>random</i> modulining randint funksiyasini yuklab oladi.
	Funksiyani e'lon qiladi.
	Matn maydoni orqali kiritilgan textbox_input o'zgaruvchisi qiymatini olib, butun songa aylantiradi.
	Natijani chiqaruvchi maydon, ya'ni textbox_output o'zgaruvchisining qiymatini o'chiradi.
	1 dan 11 gacha 10 ta sikl ishlaydi.
	1 dan number gacha bo'lgan sonlar orasidan tasodifiy sonni topadi.
	Tasodifiy sonni natija chiqaruvchi maydon, ya'ni textbox_output o'zgaruvchisiga tenglaydi.
	Tkinter oynasini yaratish.
	Tkinter oynasi sarlavhasiga nom beradi.
	Tkinter oynasi o'lchamini o'rnatadi.
	Tkinter oynasi fon rangini belgilaydi.
	Tasodifiy son yuqori chegarasining maydoni nomini ko'rsatish uchun yorliq yaratadi.
	Matnli maydonni katakka joylashtiradi: 0-satr va 0-ustun.
	Tasodifiy sonlarni chiqarish maydoni nomini ko'rsatish uchun yorliq yaratadi.
	Matnli maydonni katakka joylashtiradi: 2-satr va 0-ustun.
	Tasodifiy sonning yuqori chegarasini kiritish uchun matn maydoni yaratadi.
	Matnli maydonni katakka joylashtiradi: 1-satr va 0-ustun.
	10 ta tasodifiy sonni chiqarish uchun matnli maydonni yaratadi.

5. Berilgan ikki yoki undan ortiq sonning eng kichik umumiy karralisi (EKUK)ni topish dasturini tuzing. Funksiyadan foydalaning.

Kiruvchi ma'lumot	Chiquvchi ma'lumot
18 24	72

6. Soat, minut va sekunda berilgan birlikni sekundga aylantirish funksiyasini yozing.

Kiruvchi ma'lumot	Chiquvchi ma'lumot
soat=4 minut=15 sekund=60	15360 s

7. Canvas maydonida matn va rasmdan iborat otkritka hosil qiling.
8. GUIDan foydalanib, kalkulyator hosil qiling.
9. Shilliqqurt balandligi h metr daraxtning yuqorisiga sudralib chiqmoqda. U kunduzi a metr ko'tarilsa, kechasi b metr pastga tushadi. U daraxt uchiga necha kunda yetib boradi? h , a va b ($a>b$) qiymatlar foydalanuvchi tomonidan kiritiladi.
10. Ikki a va b son berilgan. Ulardan kattasini aniqlash dasturini tuzing.
11. Belgilar yordamida hosil qilingan pingvinni n marta chiqarish dasturini tuzing. $n - 1$ dan 4 gacha bo'lgan natural sonlarni qabul qiladi.



12. n ta kvadratni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing. $n - 1$ dan 5 gacha bo'lgan natural sonlarni qabul qiladi.

